

## **Tarix fanidan test topshiriqlarini yechish bo'yicha abituriyentlar uchun ayrim tavsiyalar**

### **1 - test topshirig'i**

Bronza davriga oid Sopollitepa manzilgohi hozirda Surxondaryoning qaysi tumanida joylashgan?

- A) Muzrabod
- B) Boysun
- C) Termiz
- D) Sho'rchi

Ushbu keltirilgan test topshirig'i abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorning 1.1- bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1-1.2, 1.22 kodiga va test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan birinchi murakkablik darajasidagi test savoliga mos keladi.

### **Test topshirig'ining bajarilishi:**

Mazkur test topshirig'ini bajarish uchun birgina Sopollitepa yodgorligini qaysi tumanda joylashganligini topishimiz kerak bo'ladi.

**To'g'ri javob:** A) Muzrabod

**Manba:** A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy "Qadimgi dunyo tarixi" 6-sinf darsligi. 2017 yil. 23-bet.

### **2 - test topshirig'i**

O'rta asrlarda hukmronlik qilgan quyidagi davlatlarni barham topgan davriga qarab xronologik tartibda joylashtiring.

1. Somoniylar. 2. Qoraxoniylar. 3. Safforiylar. 4. G'aznaviylar.

- A) 1, 4, 2, 3
- B) 3, 1, 4, 2
- C) 1, 2, 3, 4
- D) 3, 1, 2, 4

Ushbu keltirilgan test topshirig'i abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 1.2 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1-1.2, 1.5-1.22 kodiga va test topshiriqlari tafsilotida

keltirilgan ikkinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

**Test topshirig‘ining bajarilishi:**

Test topshirig‘ini bajarish uchun yuqorida berilgan davlatlarning barham topgan davrini bilishimiz va ularni barham topgan yillariga qarab to‘g‘ri xronologik tartibda joylashtirishimiz kerak bo‘ladi.

1. Somoniylar - 999-yilda.
2. Qoraxoniylar - 1141-yilda.
3. Safforiylar - 900-yilda.
4. G‘aznaviylar - 1186-yilda.

Ularni xronologik tartibda joylashtiramiz: 3,1,2,4.

**To‘g‘ri javob:** D) 3, 1, 2, 4

**Manba:** A. Muhammadjonov. "O‘zbekiston tarixi" 7-sinf darsligi. 2017-yil, 44-, 53-, 56-, 59-betlar.

**3 - test topshirig‘i**

Konstantin Petrovich fon Kaufman Turkiston general-gubernatorligini boshqargan yillar oralig‘ida Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan shaharlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

1. Jizzax.2. Samarqand 3. Xiva 4. Namangan 5. Xo‘jand 6. Urgut 7. Kattaqo‘rg‘on 8 .Kushka 9 .Andijon
- A)2, 3, 4, 6, 7, 9
- B)1, 2, 3, 4, 5, 6
- C)2, 5, 6, 7, 8, 9
- D)1, 3, 5, 7, 8, 9

Ushbu keltirilgan test topshirig‘i abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo‘yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo‘limidagi fan mazmunining 1.4 bo‘lim kodiga, ikkinchi bo‘limda keltirilgan o‘zlashtirish zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va talabning 1.1- 1.2, 1.10 kodiga va test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan uchinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

**Test topshirig‘ining bajarilishi:**

Birinchidan, Konstantin Petrovich fon Kaufmanning general-gubernatorlik davrini belgilaymiz: 1867-1881-yillar. Keyin har bir berilgan shaharni podsho qo‘shinlari tomonidan egallagan yillarini topamiz: 1. Jizzax-1866-yilda. 2.Samarqand-1868-yilda. 3. Xiva-1873-yilda. 4.Namangan-1876-yilda. 5.Xo‘jand-1866-yilda. 6.Urgut-1868-yilda. 7.Kattaqo‘rg‘on-1868-yilda. 8.Kushka-1885-yilda 9.Andijon- 1876-yilda.

Ulardan faqat Konstantin Petrovich fon Kaufmanning general-gubernatorlik davri oraliq'iga to'g'ri kelgan javob variantini tanlaymiz: 2, 3, 4, 6, 7, 9.

**To'g'rijavob:** A) 2, 3, 4, 6, 7, 9

**Manba:** S.Tillaboyev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. 2014-yil, 27-, 32-, 33-, 37, 40-betlar.

#### **4 - test topshirig'i**

2004-yilda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatni toping.

A) Vengriya

B) Finlandiya

C) Daniya

D) Ispaniya

Ushbu keltirilgan test topshirig'i abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 2.6 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1-1.2, 1.18-1.22 kodiga va test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan birinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

#### **Test topshirig'ining bajarilishi:**

Test topshirig'ini bajarish uchun har bir javob variantini ko'rib chiqamiz: Vengriya Yevropa Ittifoqiga 2004-yilda a'zo bo'lgan. Finlandiya-1995-yilda, Daniya-1973-yilda, Ispaniya-1986-yilda.

**To'g'ri javob:** B)Vengriya

**Manba:** M. Lafasov. Jahon tarixi- akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. 2013-yil, 177-bet.

#### **5 - test topshirig'i**

Quyidagi berilgan safaviy hukmdorlarni ular hukmronlik qilgan yillariga qarab xronologik tartibda joylashtiring.

1. Taxmasp II 2. AbbosI 3. Ismoil Safaviy 4. Sulton Husayn.

A) 3,2,4,1

B) 2,3,1,4

C) 1, 2, 3, 4

D) 3, 2, 1, 4

Ushbu keltirilgan test topshirig'i abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 2.3 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim,

ko'nikma va talabning 1.1-1.2, 1.7-1.12, 1.22 kodiga va test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan ikkinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

**Test topshirig'ining bajarilishi:**

Test topshirig'ini bajarishda dastlab, hukmdorlarning hukmronlik yillarini topamiz: Safaviylar sulolasining asoschisi Ismoil Safaviy 1502-1524-yillarda, 1587-1629-yillarda Abbos I. XVIII asr boshlarida Sulton Husayn hukmronlik qilgan va sulolaning so'nggi vakili Taxmasp II hisoblanadi. Keyin ularni hukmronligi bo'yicha xronologik tartibda joylashtiramiz-3, 2, 4, 1.

**To'g'ri javob:** D) 3, 2, 4, 1

**Manba:** U.Jo'rayev, R.Farmonov, SH. Ergashev. "Jahon tarixi" 8-sinf darsligi. 2014 yil, 85-, 86-, 87-betlar.

**6 - test topshirig'i**

Ikkinchi jahon urushi davrida ittifoqchi davlat rahbarlari ishtirokidagi konferensiyalar va ularda ko'rilgan masalalar mos ravishda joylashtirilgan javobni belgilang?

1.Tehron konferensiyasi. 2.Qrim konferensiyasi. 3.Potsdam konferensiyasi.

a)Yevropada ikkinchi frontni ochish masalasi.

b)"Ozod Yevropa to'g'risida deklaratsiya" e'lon qilindi

c)Asosiy jinoyatchilarni xalqaro tribunalga berish.

A) 1-a,2-b,3-c

B) 1-c,2-b,3-a

C) 1-a,2-c,3-b

D) 1-c,2-a,3-b

Ushbu keltirilgan test topshirig'i abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 2.5 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1-1.2, 1.7-1.17 1.22 kodiga va test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan uchinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

**Test topshirig'ining bajarilishi:**

Test topshirig'ini bajarish uchun ikkinchi jahon urushi davrida bo'lib o'tgan konferensiyalarda ko'rilgan masalalarni bilishimiz kerak bo'ladi: 1.Tehron konferensiyasi 1943-yilning 27-noyabr- 1-dekabrda bo'lib o'tgan va unda asosiy

masala Yevropada ikkinchi frontni ochish bo‘lgan. 2.Qrim konferensiyasi 1945-yil 4-11-fevralda chaqirilgan bo‘lib, bu konferensiyada ”Ozod Yevropa to‘g‘risida deklaratsiya” e‘lon qilingan. 3.1945-yil 17-iyulda Potsdam konferensiyasi o‘tkazilib, ushbu konferensiyada asosiy jinoyatchilarni xalqaro tribunalga berish masalasi ko‘rib chiqilgan.

**To‘g‘rijavob:** A) 1-a,2-b,3-c

**Manba:** M. Lafasov. Jahon tarixi-akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. 2013-yil, 148-, 150-151-betlar.